Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
Mintaqa turizmini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan mijozlar qoniqishini kompleks baholash uslubi	846
Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi	
Mintaqaviy eksport samaradorligiga innovatsion yondashuvlarning ta'sir omillarini tadqiq etish	851
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	
Buxoro viloyatida ichki turizmning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'llari	857
Azimov Otabek Xudayberdievich	
Tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarining mintqa iqtisodiyotining o'sishga ta'siri bo'yicha qarashlar	862
Ozodova Farida Zarif qizi	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni boshqarish strategiyalari	866
Madaminov Bekzod Allayorovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini raqamlashtirishni takomillashtirish metodologiyasi jarayonlari	872
Muxammadov Nodir Karimovich	
O'zbekiston eksport salohiyatini soliqlar yordamida rag'batlantirish	880
Mahmudova Sevara Rahmat qizi	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar	883
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Сравнительный анализ правовых инструментов контроля трансфертного ценообразования в налоговой, таможенной и антимонопольной сферах	887
Бекзод Умматов	



Yaponiya startap tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etish istiqbollari	892
Xazratova Shohsanam Xasanboy qizi	
Рейтинг Республики Узбекистан по индексу развития электронного правительства	898
Умарова Дурдона Абдуманнабовна	
Etnomadaniy turizm tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	905
Qilichova Orzigul Zafar qizi	



ETNOMADANIY TURIZM TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI



Qilichova Orzigul Zafar qizi

Magistr

E-mail: qilichova007@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizmning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni, uning rivojlanish dinamikasi va global statistik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Asosan etnomadaniy turizm tushunchasi va uning mazmun-mohiyatiga bag'ishlanib, xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar taqqoslab o'rganilgan. Tadqiqot davomida etnomadaniy turizmning etnik va etnografik turizm bilan o'zaro aloqasi, ularning farqli jihatlari hamda mazkur turizm turining iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida "etnomadaniy turizm" atamasiga yangi ta'rif ishlab chiqilgan bo'lib, unda mazkur turizmning resurs bazasi, ishtirokchilari va motivatsion omillari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: etnomadaniy turizm, etnik turizm, etnografik turizm, turizm industriyasi, iqtisodiy o'sish, etnografiya, xalq, madaniyat, milliy qadriyatlar, turistlar motivatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the role of tourism in the global economy, its development dynamics, and international statistical indicators. The main focus is placed on the concept and essence of ethnocultural tourism. Definitions provided by foreign and local scholars are compared and analyzed. The study explores the interrelation of ethnocultural tourism with ethnic and ethnographic tourism, their distinctive features, as well as the economic and cultural significance of this type of tourism. Based on the author's research, a new definition of "ethnocultural tourism" is proposed, highlighting its resource base, participants, and motivational factors.

Key words: ethnocultural tourism, ethnic tourism, ethnographic tourism, tourism industry, economic growth, ethnography, people, culture, national values, tourist motivation.

Аннотация: В статье рассматривается роль туризма в мировой экономике, его динамика развития и глобальные статистические показатели. Основное внимание уделено понятию этнокультурного туризма и его сущности. Проведен сравнительный анализ определений, данных зарубежными и отечественными исследователями. В ходе исследования раскрыта взаимосвязь этнокультурного туризма с этническим и этнографическим туризмом, их различия, а также экономическая и культурная значимость данного направления. На основе проведённых исследований автором предложено новое определение термина «этнокультурный туризм», в котором подробно отражены ресурсная база, участники и мотивационные факторы данного вида туризма.

Ключевые слова: этнокультурный туризм, этнический туризм, этнографический туризм, туристическая индустрия, экономический рост, этнография, народ, культура, национальные ценности, мотивация туристов.

KIRISH

Hozirgi vaqtda turizm kuchli global sanoatdir. Tez o'sish sur'ati tufayli u asrning iqtisodiy hodisasi sifatida e'tirof etilmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda turizm yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Turizm iqtisodiyotning transport, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi kabi asosiy tarmoqlariga katta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning katalizatori



bo'lib xizmat qiladi. Turizmning valyuta tushumlari va xalqaro aloqalarni kengaytirish manbai sifatidagi ahamiyati muttasil ortib bormoqda.

2024-yil oxirida jahon turizm bozori hajmi 10,9 trillion dollarga yetdi. Bu 2023-yilga nisbatan 8,5 foizga va 2019-yilda qayd etilgan avvalgi cho'qqiga nisbatan 6 foizga ko'pdir. 2024 yilda sayohat va turizm jahon iqtisodiyotining 10 foizini tashkil qiladi. Global miqyosda tegishli sohada band bo'lgan jami xodimlar soni o'tgan yilga nisbatan 6,2 foizga ortib, 357 million kishiga yetdi. Shunday qilib, dunyo bo'ylab taxminan 10 ish o'rinidan biri sayohat va turizm sektoriga to'g'ri keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon turistik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda 1,4 milliard turist xalqaro miqyosda sayohat qilgan, bu sanoat COVID-19dan oldingi darajaga (99%) samarali tarzda tiklanganidan dalolat beradi. Turizm sektori 2025 yilda 11,7 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa jahon iqtisodiyotining 10,3 foizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ish o'rinlari soni 14 millionga oshadi va 371 million kishiga yetadi[9].

2024-yilda 2019-yilga nisbatan turistlar oqimining sezilarli o'sishi quyidagi yo'nalishlarda qayd etildi: Salvador (+81%), Saudiya Arabistoni (+69%), Efiopiya (+40%), Marokash (+35%), Gvatemala (+33%) va Dominikan Respublikasi (+32%)[10].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Etnik va etnografik turizm, etnomadaniy turizm tushunchalari bir-biriga juda yaqin tushunchalar bo'lsa-da, lekin ularning mazmunan turlicha ekanligini, ular o'rtasidagi munosabatlarga turlicha qarashlar mavjudligini xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchi olimlarning olib borgan ishlaridan bilishimiz mumkin. Shuning uchun ularning ilmiy izlanishlari bu yo'nalishda asosiy nazariy manba sifatida muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, A.I.Shukin o'z dissertatsiya tadqiqotida ta'kidlaydiki, etnografik sayohatlarning asosiy ishtirokchilari etnografiya bilan professional ravishda shug'ullanadigan odamlardir. O'z navbatida, etnik turizm ishtirokchilari ma'naviy ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lgan turistlarning keng auditoriyasidir [4]. Shukinning fikriga ko'ra etnik hamda etnografik turizm turlarining faqri ularni amalga oshirayotgan turistlarning potentsiali deb keltirilgan. Bizningcha esa bir xil resurs va manbalarni, ayan bir joydan iste'mol qiladigan turistlar bir biridan farqli emas, ular xoh professional mutaxassis yoki o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun sayohat qilayotgan turist bo'lmasin. V.N.Presnyakov va M.A.Julin etnik va etnografik turizmni sinonim deb hisoblaydilar [3].

A.G.Butuzov o'z qo'llanmasida aytadiki, etnomadaniy turizm - etnomadaniy sohadagi hodisalarning xilma-xilligini tushunish istagi bilan belgilanadigan turistik faoliyatning turli shakllari to'plami. Etnomadaniy turizmning mustaqil va murakkab tabiatini tan olish zarurati uning doirasida foydalaniladigan turistik resurslarning o'ziga xosligi, uning ishtirokchilarining motivatsiyasi, xodimlar va boshqaruvga qo'yiladigan malaka talablaridan dalolat beradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot davomida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, qiyosiy tahlil metodi orqali etnomadaniy turizmning xorijiy va mahalliy tajribasi o'zaro taqqoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab berildi. Tanqidiy fikrlash asosida mavjud nazariy yondashuvlar qayta ko'rib chiqildi va ilmiy manbalardagi turli qarashlarga baho berildi. Shuningdek, tizimli yondashuv metodidan foydalanilib, etnomadaniy turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy komponentlari yaxlit tizim sifatida o'rganildi.

Bundan tashqari, ilmiy-abstrakt fikrlash usuli yordamida mavzuga oid umumlashtirilgan nazariy xulosalar ishlab chiqildi, turizmning konseptual asoslari va tushunchalarini aniqlashga erishildi. Mantiqiy mushohada metodlari esa tadqiqotda asosiy xulosalarni aniqlash, turizm sohasida mavjud nazariy ta'riflar va amaliy yondashuvlar orasidagi uyg'unlikni topishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmga har bir yo'nalish o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu mintaqaning mehmonlari uchun jozibali turistik imidj yaratish uchun hududning madaniy xususiyatlarini o'rganish va moslashtirishni talab qiladi. Turizm differensial hodisalar, aloqalar va munosabatlarda o'z ifodasini topadi, buning natijasida tasnifni aniqlash va belgilangan amaliyotga yo'naltirilgan maqsadlarga qarab turizm turlarini o'xshash mezonlar bo'yicha guruhlariga bo'lish zarurati tug'iladi. Tasniflash mezonlaridan kelib chiqib, turizm sohasining eng istiqbolli yo'nalishlaridan, ya'ni madaniy-ma'rifiy etnografik turizmga to'xtalamiz [11].

Madaniy turizm bozorini o'rganish uchun birinchi navbatda uni boshqa turizm segmentlaridan farqlash kerak. Madaniy turizm bu-odamlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha sayohatlar va tadbirlar yig'indisidir, ma'lum bir manzildan tashqarida yashash, to'liq yoki ma'lum darajada ushbu manzilning madaniy takliflari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda. Bu ta'rif madaniy turizmga madaniyatni keng tushunishga asoslanadi.



Shunday qilib, madaniyat nafaqat teatrlar, muzeylar, festivallar va boshqalarni (yuqori madaniyat), balki, masalan, marosimlar, urf-odatlar, qadriyatlar va boshqalarni (kundalik madaniyat) ham qamrab oladi. Madaniy taklif allaqachon mavjud, ya'ni tabiiy ravishda paydo bo'lgan (masalan, binolar, qoldiqlar, urf-odatlar) yoki turizm uchun maxsus yaratilgan bo'lishi mumkin, masalan, turli turistik markazlar [7]. Lekin ushbu ta'rifni chuqurroq tahlil qilganda, madaniy turizmni odamlar tomonidan amalga oshirilgan barcha sayohatlar va tadbirlar yig'indisi, yoki turist o'zi yashab turgan hududdan tashqarida yashab ko'rishi deb bo'lmaydi, bunda aynan ma'lum bir etnik guruhlarning turmush tarzi va etnografiyasi, hamda etnik manzillari nazarda tutilishi lozim. Bundan tashqari madaniy turizmni moddiy resurslar, ya'ni muzeylar hamda binolar kabilar bilan emas asosan boshqa turizm turlaridan nomoddiy resurslar (urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar) asosida tushuntirish ko'proq to'g'ri bo'lishi mumkin.

Etnomadaniy turizm-turizm yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'ziga xos etnik, til va madaniy xususiyatlarning yorqin namoyish etuvchisidir. Etnik turizm ichki va tashqi bo'lishi, aniq ilmiy va ma'rifiy xarakterga ega yoki ziyorat, nostalgik yoki faqat faol dam olish bilan birga bo'lishi mumkin. Etnomadaniy bilimlarni turizmga professional kiritish mahsulotning ko'plab turistlar orasida o'z qiymati va talabni oshiradi. Etnografik turizm deganda ta'lim turizmining bir turi tushuniladi, asosiysi maqsadi-hozir yashayotgan yoki o'tmishda yashagan muayyan xalq (etnik guruh) madaniyati, me'morchiligi, hayoti bilan tanishish uchun ma'lum bir etnik hududga tashrif buyurish. Boshqa so'z bilan aytganda, etnografik turizm mintaqaning tarixiy va adabiy merosini bilish shakli. Etnografik turizm turistlarning xalqlarning haqiqiy hayotiga qiziqishiga asoslanadi [2]. Keltirilgan ta'rifda etnomadaniy turizm ta'lim turizmining bir turi sifatida tushuntirilgan, hamda bu turizm turining maqsadlari sifatida ilmiy, ma'rifiy, ziyorat, nostalgik kabilar keltirilgan. Etnomadaniy turizm obyektlarini boshqa turizm obyektlari bilan umumiylikni ko'rishimiz mumkin albatta, lekin buni ilmiylik yoki ta'lim turizmi bilan bevosida bog'lash bizningcha to'g'ri emas.

1-jadval. Etnomadaniy turizm va unga yaqin tushunchalarning taqqoslanishi

Turizm yo'nalishi	Asosiy maqsadi	Resurs bazasi (asosiy manbalar)	Ishtirokchilar auditoriyasi	O'ziga xos xususiyati
Madaniy turizm	Manzilning umumiy madaniy takliflari bilan tanishish	Teatrlar, muzeylar, festivallar, arxitektura, madaniy tadbirlar	Keng jamoa, madaniyat ixlosmandlari	Yuqori (klassik) madaniyat va kundalik madaniyatni qamrab oladi
Etnografik turizm	Ma'lum bir xalq yoki etnik guruh madaniyati, tarixi, hayoti bilan tanishish	Tarixiy obidalar, me'morchilik, etnografik hududlar, marosimlar	Ilmiy tadqiqotchilar, talaba va o'quvchilar	Ta'lim-tarixiy yo'nalishga ega bo'lib, ko'proq ilmiy maqsadlarda tashrif buyuriladi
Etnik turizm	Turistni tub aholi muhitiga singdirish, milliy madaniyat bilan tanishtirish	Urf-odatlar, an'analar, mahalliy turmush tarzi, xalq festivallari	Ichki va tashqi turistlar, mahalliy aholiga qiziquvchilar	An'anaviy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi
Etnomadaniy turizm	Etnik guruhlarning madaniyati, urf-odati, marosimlari va turmush tarzi bilan tanishish	Nomoddiy resurslar (an'analar, marosimlar, qadriyatlar, til, e'tiqod), moddiy resurslar (obidalar, hunarmandchilik mahsulotlari)	Keng auditoriya: sayohatchilar, olimlar, madaniyat ixlosmandlari	Etnik va madaniy turizmni uyg'unlashtiruvchi, ko'p qirrali va ilmiy-ma'rifiy yo'nalishga ega

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, madaniy turizm kengroq tushuncha bo'lib, u teatrlar, muzeylar, festivallar, tarixiy obidalar va boshqa madaniy obyektlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi.

Etnografik turizm ko'proq ilmiy va ta'limiy xarakterga ega bo'lib, maqsadi muayyan xalq yoki etnik guruhning tarixi, madaniyati va hayotini o'rganishdir. Bu yo'nalishda turistlar odatda ilmiy tadqiqotchilar, talabalar yoki madaniyatshunoslardan iborat bo'ladi.

Etnik turizm esa turistlarni mahalliy aholi muhitiga yaqinlashtiradi, ularning turmush tarzi, an'anaviy qadriyatlari va madaniy marosimlari bilan tanishtiradi. Bu yo'nalish nafaqat turizmni rivojlantiradi, balki an'anaviy iqtisodiyotni ham qo'llab-quvvatlaydi va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi.

Etnomadaniy turizm yuqoridagi uch yo'nalishni o'zida uyg'unlashtiradi. Unda turistlar etnik guruhlarning tili, urf-odatlari, an'analari, e'tiqodlari, milliy bayramlari, turmush tarzi va tarixiy rivojlanishini o'rganadi. Shu bois etnomadaniy turizm ko'p qirrali, ilmiy-ma'rifiy va madaniy qadriyatlarni asrashga xizmat qiluvchi keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etiladi.



Etnik turizm-madaniy-ma'rifiy turizmning yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nazarda tutadiki, turistni tub aholi muhitiga singdirish, mahalliy milliy madaniyat bilan tanishtirish. Etnik turizmni an'anaviy iqtisodiyotni saqlash va rivojlantirishning mumkin bo'lgan strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin, bu turizm turi madaniy merosni saqlashga hissa qo'shadi va hududlarning barqaror rivojlanishi omili hisoblanadi [6]. Yuqorida etnik turizm an'anaviy iqtisodiyotni saqlash va rivojlantirish uchun strategik yo'nalish sifatida baholangan va bu asosli fikrdir. Ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu turizm turining rivojlanishi kam resurs sarf qilgan vaqtda turizmdan yuqori daromadga erishishda maqbul yo'nalishdir. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotda turistlar oqimi eng ko'p o'sgan davlatlar ham aynan madaniy turizm turizm bozorida eng ommabop yo'nalishlardan biri bo'lgan mamlakatlar hisoblanadi.

Etnik turizm madaniy-ma'rifiy turizmning yo'nalishlaridan biri bo'lib, ko'p millatli mamlakatlarda eng istiqbolli hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, etnik turizmni tashkil etishda eng muhimi ishtirokchilarni turli xalqlar va etnik guruhlarining an'analari va madaniyati bilan tanishtirishdir. Ba'zan bunday turizmni etnografik deb ham atashadi, chunki etnografiya ("etnikshunoslik") dunyoning turli xalqlarining tarixiy rivojlanishidagi madaniy va maishiy xususiyatlarini o'rganadigan, ushbu xalqlarning kelib chiqishi va madaniy-tarixiy munosabatlarini o'rganadigan, ularning joylashishi va harakati tarixini qayta tiklaydigan fandir [5].

Etnoturizm nima ekanligini tushunish uchun "etnos" so'zi "xalq" degan ma'noni anglatishini eslash kifoya. Etnografiya esa xalqlarni o'rganuvchi fandir. Etnomadaniy turizm bu o'z urf-odatlarini va an'anaviy turmush tarzini saqlaydigan kichik va mahalliy xalqlar vakillariga sayohat. Agar ular o'z madaniyatini baham ko'rishga tayyor bo'lsa, bu avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan mahalliy e'tiqodlar, bayramlar, an'anaviy taomlar va hunarmandchilik haqida birinchi qo'ldan bilish uchun qiziqarli imkoniyatdir. Katta shaharlardan uzoqda joylashgan, zamonaviy sivilizatsiyadan kamroq ta'sirlangan aholi punktlari saqlanib qolgan joylarda etnik turizmni amalga oshirish mumkin. Ushbu toifaga arxeologik majmualar va ochiq osmon ostidagi muzeylarga tashrif buyurish ham kiradi. Ular bizni o'tmishda bo'lgan madaniyat bilan tanishtiradi [12]. Ushbu keltirilgan ta'rifda kichik xalqlar vakillariga sayohat emas, balki etnik guruhlar hayotiga sayohat deb keltirilishi bizningcha to'g'ri bo'lar edi, chunki "xalq" so'zi bu umumiy va kengroq ma'noni anglatadigan tushunchadir.

Etnografik turizm-madaniy sayohatning bir turi bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'lum bir hududda yashagan xalq yoki etnik guruhning me'morchiligi, madaniyati, an'analari va hayotini o'rganish uchun obyektga tashrif buyurishdir. Ushbu dam olish turi turistlarni xalqlarning haqiqiy hayotiga, xalq an'analari, ijodi, marosimlari va madaniyatiga qiziqishi ortishi natijasida paydo bo'ldi. Boshqa xalqlarning madaniyati va etnik xususiyatlari bilan tanishish yaxlit, ko'p qirrali dunyoning rasmini yaratishga yordam beradi. Etnoturizm turli xalq vakillari o'rtasida yaqin aloqalar va almashinuvlarni rivojlantirishga, ularning asl madaniyatini jahon merosiga kiritishga yordam beradi [13].

Etnik-madaniy turizm zamonaviy turizmning, jumladan, etnik, etnografik, ekologik-etnografik, antropologik (hayot tarzi turizmi), etno-ma'rifiy va nostalgik turizm yo'nalishlaridan biridir. Bu turkumga aborigin turizmi va jaylu turizmini (Qirg'izistonda turizmning yangi turlaridan biri. Jayloga sayohatlar mahalliy xalqlar yashaydigan, sivilizatsiya deyarli tegmagan, elektr va mobil aloqa mavjud bo'lmagan joylarda tashkil etiladi. Jaylo turizmi (aslida ekoturizm yoki etnoturizm) Afrikaning ichki hududlarida, Amazonka o'rmonlarida, Osiyoning tog' va dashtlarida, Sibir va Shimoliy Amerikaning o'rmon va tundralarida keng tarqalgan)ni ham kiritish mumkin [8]. Keltirilgan ta'rifda esa, etnomadaniy turizm turiga umumiy yo'nalish sifatida antropologik hamda nostalgik turizm turlarining kiritilishi bizningcha to'g'ri emas. Chunki antropologik hamda nostalgik turizm turlarining maqsadlari va resurslari etnomadaniy turizm turlaridan tubdan farq qilishi ham mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizmning barcha yo'nalishlari orasida etnomadaniy turizm alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u nafaqat turistlarning madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, balki hududlarning barqaror rivojlanishiga, milliy qadriyatlarni saqlashga va ularni targ'ib qilishga ham xizmat qiladi. Etnomadaniy turizm — bu madaniy, etnik va etnografik turizm elementlarini uyg'unlashtiruvchi, keng qamrovli va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni rivojlantirish iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy samaralarni ham ta'minlaydi. Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar shuni tasdiqladiki, etnik, etnografik va madaniy turizm turlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lsa-da, etnomadaniy turizm ularning umimlashtirilgan va mukammal shaklidir.

Etnomadaniy turizm, etnik turizm hamda etnografik turizm turlari umumiy tushunchadir. Shu o'rinda biz etnomadaniy turizm tushunchasiga quyidagicha ta'rifni ishlab chiqdik:

"Etnomadaniy turizm — turistlarning davlatlardagi ma'lum bir etnik guruhlar madaniyatining rivojlanishi tarixi, shakllanish bosqichlari, etnogenezi, etnik guruhlarining aynan o'ziga xos jihatlari (tili, shevasi, urf-odatlarini, an'analari, marosimlari, e'tiqodi, milliy bayramlari)ni, turmush tarzini o'rganish, bilish va tanishish maqsadida sayohat qilishidir."



Bu ta'rif etnomadaniy turizmning asosiy mohiyatini aniq ifodalaydi va uni boshqa turizm turlaridan ajratib turuvchi ilmiy asoslangan mezonlarni belgilaydi.

Normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash – etnomadaniy turizmni rivojlantirish bo'yicha maxsus davlat dasturlari va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish lozim.

Mahalliy jamoalarni jalb qilish – kichik va mahalliy etnik guruhlar vakillarini turizm faoliyatiga faol qo'shish, ularning madaniy merosini targ'ib etish va iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash zarur.

Nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash – an'ana, urf-odat, marosimlar, milliy taomlar va hunarmandchilikni turizm mahsuloti sifatida targ'ib qilishga e'tibor qaratish lozim.

Infratuzilmani rivojlantirish – turizm ob'ektlari joylashgan hududlarda transport, mehmonxona, axborot markazlari va boshqa qulayliklarni yaratish muhimdir.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda etnomadaniy turizm loyihalarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish – virtual sayohatlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali etnomadaniy turizmni targ'ib etish imkoniyatlarini kengaytirish kerak.

Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish – etnomadaniy turizmning iqtisodiy va madaniy samaradorligini o'rganish, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash hamda universitetlar va ilmiy markazlarda maxsus dasturlar tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butuzov A.G. Этнокультурный туризм. О'quv qo'llanma. Moskva 2013. 82-bet
2. Anjiganova L.V. Этнокультурный туризм. Ma'ruzalar to'plami. Abakan 2015
3. Sevastyanov D.V., Shukin A.I. Необходимые условия для развития экологического и этнического туризма на северо-западе России. // Vestn. Sankt-Peterburg davlat un-ta. Ser.7. Geologiya. Geografiya. 2012 yil. 3-son.
4. Julina M.A., Presnyakov V.N. Народные промыслы и этнический туризм Республики Мордовия // Geografiya va turizm: ilmiy to'plam.. Perm, 2012
5. Shukin A.I. Условия и факторы развития этнического туризма в северо-западной части Российской Федерации. dis... Ph.D. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti, 2002. 22 b.
6. Sunduyev Ch.B., Xishektuyeva L.V. Этнотуризм как одно из направлений культурно-познавательного туризма. Ilmiy maqola // Вестник бурятского госуниверситета. 2009
7. Surtayev B.M. Этнографический туризм как средство сохранения и восстановления этнокультурного наследия.. Ilmiy maqol. Вестник угроведения. //2012
8. Turdimuratov Y.A. Формы, направления и особенности этнотуризма.. Ilmiy maqola.//Toshkent 2024.
9. <https://www.tadviser.ru/index.php/%D0%A>
10. <https://www.tadviser.ru/index.php/%D0%A1%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D1%8F:%D0%A2%D1%83%D1%80%D0%B8%D0%B7%D0%>
11. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024>
12. <https://skunb.ru/node/4996>
13. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D1%82%D0%BD%D0%BE%D0%BA%D1%83%D0%BB%D1%8C%D1%82%D1%83%D1%80%D0%BD%D1%8B%D0%B9_%D1%82%D1%83%D1%80%D0%B8%D0%B7%D0%BC



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>